



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 1-6 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XORIJY INVESTITSIYALAR OQIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR



Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi
ismailova.ku@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli tahlil qilingan. Tahlil 2010–2022 yillar uchun iqtisodiy va institutsional ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, ko'p omilli regressiya modeli yordamida amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadi, YaIM, aholiga to'g'ri keladigan YaIM, korrupsiyaga qarshi nazorat, valyuta kursi va boshqa o'zgaruvchilar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Kalit so'zlar: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy omillar, regressiya tahlili, valyuta kursi, institutsional sifat.

Аннотация. В статье проведён системный анализ факторов, влияющих на приток прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в Узбекистан за период 2010–2022 годов. Исследование основано на данных по экономическим и институциональным показателям и реализовано с помощью модели множественной регрессии. Результаты показывают, что такие переменные, как ВВП, ВВП на душу населения, контроль над коррупцией и валютный курс, не оказывают статистически значимого влияния на объёмы ПИИ.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, экономические факторы, политическая стабильность, регрессионный анализ, валютный курс.

Abstract. This paper investigates the key determinants of foreign direct investment (FDI) inflows to Uzbekistan using a multivariate regression model based on economic and institutional indicators from 2010 to 2022. The results show that GDP, per capita income, corruption control, exchange rate, and other variables do not have statistically significant effects on FDI inflows.

Keywords: foreign direct investment, economic factors, political stability, regression analysis, exchange rate.

Kirish

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTTXI) mamlakatlar o'rtaqidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xorijiy investorlar kapitalni jalb etishda turli omillarga e'tibor qaratadilar, xususan, bozor hajmi va uning o'sish salohiyati, malakali ishchi kuchi, rivojlangan infratuzilma, qonunchilik tizimining barqarorligi va ochiq savdo siyosati ularning qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Katta iste'mol bozori va yuqori YaIM o'sish sur'atlari bo'lgan davlatlar, odatda, investorlar uchun jozibador hisoblanadi. Ayniqsa, aholi jon boshiga YaIM darajasi va real valyuta kursining barqarorligi xorijiy kapital oqimi uchun muhim indikatorlardir.

Bundan tashqari, biznesni yuritish qulayligi, soliqqa oid tartiblarning soddaligi, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining samaradorligi, huquqiy himoya va qonun ustuvorligi TTXIni rag'batlantiruvchi yoki cheklovchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Infratuzilmaning rivojlanganligi, ayniqsa transport va aloqa sohasidagi yutuqlar, xorijiy kompaniyalarning operatsion xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro savdoga ochiqlik va eksport-import muvozanatining optimal darajada bo'lishi investitsiyaviy xavflarni kamaytiradi va investorlar uchun bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy investitsiyalarning oqimini belgilovchi omillarni tizimli tarzda o'rganish, ularning o'zaro ta'siri va dinamikasini tahlil qilish, nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu esa, mamlakatning investitsiyaviy siyosatini yanada takomillashtirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi iqtisodiy transformatsiya jarayonini boshdan kechirayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasining ilmiy asoslanganligi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha so'nggi yillarda ko'plab empirik tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular mamlakatlarning investitsion jozibadorligini baholashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Borensztein, De Gregorio va Lee (1998) o'z tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari va ta'lim sifati TTXI uchun muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Ular yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lgan davlatlar ko'proq xorijiy kapital jalb qilish imkoniyatiga ega ekanini statistik jihatdan isbotlaganlar [1].

Asiedu (2002) Afrika davlatlari misolida olib borgan tadqiqotida bozor hajmi, savdo ochiqligi va infratuzilmaning holati TTXI oqimini aniqlovchi asosiy omillar ekani qayd etadi. U, shuningdek, iqtisodiy siyosatning barqarorligi va tashqi savdo rejimining liberalligi investorlar uchun ishonch yaratishini urg'ulaydi [2].

Noorbakhsh, Paloni va Youssef (2001) xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda malakali ishchi kuchining mavjudligini hal qiluvchi faktor sifatida ajratadi. ularning fikricha, yuqori malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan mamlakatlarda yuqori texnologiyali TTXI miqdori ancha yuqori bo'ladi [3].

Globerman va Shapiro (2003) institutsional sifat – jumladan qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurash TTXI oqimiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Ular o'z modellarida institutlar rivojlangan sari TTXI hajmi barqaror oshishini ko'rsatadi [4].

Wheeler va Mody (1992) TTXI oqimini ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan bog'liq holda o'rgangan va transport, aloqa, elektr ta'minoti kabi infratuzilmaviy ko'rsatkichlar TTXI qarorlarini shakllantirishda muhim o'rinn tutishini aniqlagan [5].

Busse va Hefeker (2007) esa iqtisodiy barqarorlikning ahamiyatiga urg'u berishgan. Ular aholi jon boshiga YaIM va valyuta kursining barqarorligi TTXI oqimini rag'batlantiruvchi omillar ekanini empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlaganlar [6].

Shuningdek, UNCTAD (2020) hisobotlarida raqamli infratuzilma, savdo raqobatbardoshligi va soliq yengilliklari kabi zamonaviy omillar ham TTXI uchun tobora

muhim omilga aylanib borayotgani ko'rsatilgan. Ushbu omillar investitsion muhitni kompleks baholashni taqozo etadi [7].

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalar oqimini belgilovchi omillar o'zaro bog'liq va ko'p omilli tizimga ega. Ularni tizimli tahlil qilish orqali har bir mamlakat o'zining investitsion siyosatini va ustuvor yo'nalishlarini aniqlashi mumkin.

Tahlil va natijalar

Bozor hajmi va o'sish potensiali: kuchli o'sish potensialiga ega yirik iste'mol bozorlari ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qiladi. O'zining ko'p aholisi va o'rta sinfi kengayib borayotgan O'zbekiston xorijiy investorlarga bunday imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

1-jadval

Investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar va ularning tavsifi

<i>O'zgaruvchilar</i>	<i>Tavsif</i>
<i>Bozor hajmi va o'sish potensiali</i>	Katta iste'mol bazasi va yuqori o'sish potensiali ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qiladi.
<i>Malakali ishchi kuchining mavjudligi</i>	Malakali va ma'lumotli ishchi kuchining mavjudligi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning muhim omili hisoblanadi.
<i>Infratuzilmani rivojlantirish</i>	Transport, aloqa va kommunal xizmatlar kabi yaxshi jismoniy infratuzilma to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun juda muhimdir.
<i>Savdoga ochiqlik</i>	Xalqaro savdoga ochiq davlatlar ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qiladi.
<i>Investitsiyalarni rag'batlantirish siyosati</i>	Soliq imtiyozlari va cheklovlarini yumshatish kabi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirish va rag'batlantirishga qaratilgan siyosatlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini oshirishi mumkin.
<i>Biznes yuritish qulayligi</i>	Biznesni tashkil etish va yuritishning soddalashtirilgan tartiblari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Malakali ishchi kuchining mavjudligi, infratuzilmaning rivojlanganligi, xalqaro savdoga ochiqlik, investitsiyalarni rag'batlantirish siyosati va biznes yuritish qulayligi - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. O'zbekistonda malakali va bilimli ishchi kuchining mavjudligi yuqori texnologiyali va ixtisoslashgan sanoat korxonalari uchun raqobatbardosh ustunlik yaratadi. Shu bilan birga, transport, kommunal xizmatlar va aloqa sohalarida infratuzilmaning rivojlanishi investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Xalqaro savdoga ochiqlik va O'zbekistonning strategik joylashuvi xorijiy investorlar uchun bozorlarga chiqishda qulaylik yaratadi. Soliq imtiyozlari, maxsus iqtisodiy zonalar va mulkka oid cheklovlarini yumshatish singari rag'batlantiruvchi siyosatlar esa investitsiya oqimini faollashtirishda muhim rol o'ynaydi. Biznes yuritish jarayonlarining soddalashtirilishi va davlat xizmatlarining samaradorligi xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhitni ta'minlaydi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekistonda o'zlashtirilgan umumiy chet el investitsiyalari hajmi 7,2 milliard dollarni tashkil etib, shundan 5,7 milliard dollari asosiy

kapitalga to'g'ri kelgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,8 milliard dollarni, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat tashkilotlari hissasi esa 2,3 milliard dollarni tashkil qildi. Tarmoqlar kesimida elektrotexnika, AKT va kimyo sanoati xorijiy investorlar uchun eng jozibali sohalar sifatida ajralib turdi. Hududlar bo'yicha esa Surxondaryo, Navoiy va Namangan viloyatlarida Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Bu jarayonda JICA, JBIC, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki va Islom taraqqiyot banki kabi yirik institutlarning ulushi alohida ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, investitsiyalarni amalga oshirish doirasida neft-gaz, qishloq va suv xo'jaligi, energetika, transport va logistika, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida muhim loyihalarga mablag' ajratildi. Hisobot davrida umumiy qiymati 3,3 milliard dollarga teng 65 ta yirik investitsiya loyihasi yakunlanib, 13 mingdan ortiq yangi ish o'rirlari yaratildi. 2020 yil oxiriga qadar 10,1 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish rejallashtirilgan bo'lib, bunda asosiy kapitalga yo'naltirilgan Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi 6,6 milliard dollarni tashkil etadi. Hukumat tomonidan loyihalarning samaradorligini ta'minlash va hududiy monitoringni amalga oshirish maqsadida maxsus komissiya va vazirliklar tomonidan tizimli ishlar davom ettirilmoqda.

2-jadval

O'zgaruvchilarning tasnifiy statistikasi

O'zgaruvchilar	Kuzatuvlar soni	O'rtacha	Standart chetlanish	Min	Maks
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	13	1.50	0.70	0.62	2.31
YalIM	13	68.33	13.50	49.77	86.2
Aholi jon boshiga YalIM	13	2303.92	449.51	1742	2754
YalIM o'sishi %	13	6.13	1.54	1.89	7.60
Valyuta kursi	13	5254.56	3448.35	1653.28	11270.64
Hukumatning samaradorligi	13	30.91	7.15	19.91	44.72
Qonun ustuvorligi	13	10.74	4.99	3.29	19.72
Korrupsiyaga qarshi nazorat	13	10.99	4.98	2.84	23.09
Eksport va import	13	34.56	7.66	24.51	44.24

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadi, 2010–2022 yillar davomida O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi turlicha dinamikaga ega bo'lib, 2013 yilda 0,69 mlrd dollargacha kamaygan bo'lsa, 2019 yilda 2,31 mlrd dollargacha ko'tarilgan. Yalpi ichki mahsulot (YalIM) va aholi jon boshiga YalIM mo'tadil o'sishni namoyon etgan, ammo 2017 yilda YalIMda keskin pasayish kuzatilgan. Valyuta kursi yillar davomida ancha o'sgan, bu milliy valyutaning qadrsizlanishiga ishora qiladi. Shuningdek, qonun ustuvorligi va hukumat samaradorligidagi o'sish ijobiy tendensiyani aks ettirsa-da, xorijiy investitsiyalar oqimida barqarorlik kuzatilmagan. Eksport-import hajmi ham o'sishda davom etgan bo'lib, mamlakatning xalqaro savdo salohiyati kengayganini ko'rsatadi.

3-jadval**Regressiya natijalari**

O'zgaruvchilar	Koeffitsient		Standard xatolik	t-value	p-value
Constant	-1.358		2.413	-0.562	0.593
YaIM	0.035		0.073	0.480	0.651
Aholi jon boshiga YaIM	0.002		0.001	1.450	0.181
YaIM o'sishi %	0.013		0.234	0.056	0.957
Valyuta kursi	0.000		0.000	0.518	0.612
Hukumatning samaradorligi	0.021		0.038	0.548	0.600
Qonun ustuvorligi	0.014		0.043	0.320	0.758
Korrupsiyaga qarshi nazorat	0.027		0.040	0.677	0.532
Eksport va import	-0.007		0.007	-0.976	0.348

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

YaIM: YaIM koeffitsienti 0,035 ga teng, bu YaIMning bir birlik o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 0,035 birligiga o'sishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq, bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p -qiymati = 0,651). Shuning uchun biz yalpi ichki mahsulot va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'rtaida sezilarli chiziqli bog'liqlik mavjud degan xulosaga kela olmaymiz.

Xulosa

Aholi jon boshiga YaIM: Aholi jon boshiga YaIM koeffitsienti 0,002 ni tashkil etadi, bu esa aholi jon boshiga YaIMning bir birlik o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 0,002 birligiga o'sishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq, bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p -qiymati = 0,181), bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'rtaсидаги bog'liqlik ahamiyatlari bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatadi.

YaIM o'sish %: YaIM o'sish % koeffitsienti 0,013 ga teng bo'lib, YaIM o'sishning % bir birlik o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 0,013 birligiga o'sishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq, bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p -qiymati = 0,957). Demak, bizda YaIM o'sish % va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'rtaсидаги muhim bog'liqlikni tasdiqlovchi kuchli dalillar yo'q.

Valyuta kursi: Valyuta kursi uchun koeffitsient 0,000 ga teng, bu valyuta kursi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'rtaida chiziqli bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi. Bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p -qiymati = 0,612).

Hukumat faoliyati samaradorligi: Hukumat samaradorligi koeffitsienti 0,021 ni tashkil etadi, bu hukumat samaradorligining bir birlik o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 0,021 birligiga o'sishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq, bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p -qiymati = 0,600).

Qonun ustuvorligi: Qonun ustuvorligi koeffitsienti 0,014 ni tashkil etadi, bu qonun ustuvorligining bir birlik o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 0,014 birligiga o'sishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq, bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p-qiymati = 0,758).

Korrupsiyani nazorat qilish: Korrupsiyani nazorat qilish koeffitsienti 0,027 ni tashkil etadi, bu esa Korrupsiyani nazorat qilishning bir birlik o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 0,027 birligiga o'sishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq, bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p-qiymati = 0,532).

Eksport va import: Eksport va import koeffitsienti -0,007 ga teng, bu eksport va importning bir birlik o'sishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning -0,007 birlik kamayishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq, bu koeffitsient statistik ahamiyatga ega emas (p-qiymati = 0,348).

Umuman olganda, p-qiyatlariga asoslanib, regressiya modelidagi mustaqil o'zgaruvchilarning hech biri to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bilan statistik jihatdan ahamiyatli aloqalarni ko'rsatmaydi. Bu shuni anglatadiki, model to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va tanlangan mustaqil o'zgaruvchilar o'rta sidagi sezilarli chiziqli munosabatlarni quvvatlovchi kuchli dalillarni taqdim etmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J. W. (1998). How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth? *Journal of International Economics*, 45(1), 115–135.
2. Asiedu, E. (2002). On the determinants of foreign direct investment to developing countries: Is Africa different? *World Development*, 30(1), 107–119.
3. Noorbakhsh, F., Paloni, A., & Youssef, A. (2001). Human Capital and FDI Inflows to Developing Countries: New Empirical Evidence. *World Development*, 29(9), 1593–1610.
4. Globerman, S., & Shapiro, D. (2003). Governance infrastructure and US foreign direct investment. *Journal of International Business Studies*, 34(1), 19–39.
5. Wheeler, D., & Mody, A. (1992). International investment location decisions: The case of US firms. *Journal of International Economics*, 33(1–2), 57–76.
6. Busse, M., & Hefeker, C. (2007). Political risk, institutions and foreign direct investment. *European Journal of Political Economy*, 23(2), 397–415.
7. UNCTAD. (2020). World Investment Report 2020: International Production Beyond the Pandemic. United Nations Conference on Trade and Development.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

